

## IJTIMOIY TARMOQ YOZISHMALARINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI. PSIXOLINGVISTIK TAHRIRI.

*Rahimqulova Lobar Hamro qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti  
universiteti (o`zbek tili) yo`nalishi tayanch doktoranti*

*Baxtiyor Mengliyev Rajabovich*

*Alisher navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti  
universiteti professori, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Dunyodagi barcha sohalarni qamrab olayotgan globallashuv jarayoni jahon tilshunosligining ham, til ta`limining ham zimmasiga yangidan yangi vazifalarni qo`ymoqda. Jahon tilshunosligida lisoniy birliklarning nutqiy ifodasi, mazmun-mohiyati, pragmatik va psixologik xususiyatiga e`tibor tobora kuchaymoqda. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida tildan amaliy foydalanishning samaradorligini oshirishga qaratilgan qator tarmoqlarning integratsiyalashuvi yuzaga keldiki, ularning pirovard masalasida inson omili turadi. Ushbu jarayon antroposentrizm ustuvorlik qiladigan qator tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi. [Qarang: Mengliyev B. Amaliy filologiya istiqbollari va uning “Davlat tili to`g`risida”gi Qonun ijrosiga uyg`unligi imkoniyatlar eshigining “kaliti”. Ma`rifat gazetasi.2015-yil 10-oktabr].

Maqolada tilshunoslik sohasining psixologiya sud-huquq tizimi, sotsiologiya sohalari bilan hamkorlikdagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarini lingvistik ekspertiza qilish va bu jarayonda shaxs ruhiy holatini tahlil orqali kriminalingvistika sohasining taraqqiyotiga hissa qo`shish ko`zda tutilgan.

**Kalit so`zlar:** lingvistika, lingvistik ekspertiza, psixologiya, ijtimoiy tarmoqlar, tahdid

**Abstract.** Globalization covering all areas of the world the process takes on both world linguistics and language education in a new way is setting new tasks. Linguistic unity in World linguistics increasingly focused on the expression, essence, pragmatic and psychological nature intensify. Practical use of language as a result of the development of Science and technology integration of a number of networks aimed at improving efficiency it turned out that in their ultimate issue, the a series in which anthropocentrism prioritizes became.

In the article psychology judicial system of the field of the linguistics, sociology linguistics of social network correspondence from cooperation with the fields through examination and analysis of the mental state of the individual in the process the contribution to the field of criminal linguistics is made in the field of tumor.

**Key words:** linguistics, linguistic expertise. psychology and, social networks, threat.

Barcha sohalardagi rivojlanish insoniyatdan yetarlicha bilimni talab etadi. Jumladan, sud-huquq tizimida jinoyatlarning sababini aniqlashda faqat yuridik sohagina emas, balki u bilan bir qatorda tilshunos, psixolog, sotsiolog kabi soha vakillarining birgalikdagi harakatini taqozo etyapti. Vaholanki, jamiyatning har jabhasida til asosiy mezonda turadi. Xoh sud-huquq sohasi, xoh ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xoh siyosiy farmonlar bularning bari tilshunoslik bilan uzviy bogʻliq.

Hozirgi globallashuv davrida shaxsiy yozishmalar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlardagi anonim yozishmalarning muallifini aniqlash; matn muallifining hududiy mansublik darajasini va yosh xususiyatini belgilash, soʻz qoʻllash uslubiga koʻra shaxsning jinsini aniqlash misolida milliy til egasini topish; shaxsni tahqirlash, obroʻsizlantirish xarakteridagi yozishmalarning lingvistik asoslarini yaratish va sud-huquq tizimiga tadbiq etish singari mavzularda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borildi. Ammo aynan ijtimoiy tarmoq yozishmalarini shaxs ruhiyatiga koʻra psixolingvistik jihatdan amaliy tahlil qilish borasidagi tadqiqotlarda alohida va keng qamrovda yoritilmagan boʻlib, bu soha tilshunosligimizda yangi sohalar sirasiga kiradi. Tilshunosligimizda psixolingvistika yangi sohalardan biri boʻlib, bu soha yuridik lingvistikaning tarmogʻi boʻlmish lingvistik ekspertiza bilan chambarchas bogʻliq. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini tahlil qilishda jumlalarning semantik-grammatik kabi lingvistik xususiyatlari bilan bir qatorda psixik, yaʼni soʻz qoʻllash orqali aks etgan shaxs ruhiyati, ichki kechinmalariga ham eʼtibor qaratishdan iborat. Bu sohada nazariy asoslar yetarlicha boʻlib, unga amaliy jihatdan yondashish ekspert tilshunos uchun asosiy vazifadir. Tilshunos ekspertlar ijtimoiy tarmoqlarga joylangan reklama matnlari, korrupsiya, ekstremizm, daʼvat, tahdid yoʻnalishidagi turli matnlarning lingvistik tahlilini olib borishi, uni toʻla tushunishi, anglashi va asoslashi zarur. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini amaliy tilshunoslikning tarmogʻi sifatida psixolingvistika va krimminalingvistika sohalari bilan bogʻlab, lingvistik ekspertiza olib borish bugungi rivojlanayotgan asrimiz uchun dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalari faqat SMS, email va fakslardan iborat emas, balki audio va video yozishmalar ham uning tarkibiga kiradi. Bu borada Moskva yuridik instituti olimi O.Y.Antonov shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasini tadqiq etgan va ularni quyidagi turlarga ajratgan [Антонов О.Ю. Особенности использования специальных знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // Москва, 2018. – С. 5-11. 2].

- 1) maktub shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- 2) SMS va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar;
- 3) audio tarzidagi shaxsiy yozishmalar;
- 4) video shaklidagi shaxsiy yozishmalar.

Olimning ma'lumotiga ko'ra, shaxsiy yozishmalarning har bir turi ikki tomonlama va bir tomonlama ijrochilar orqali amalga oshirilishi mumkin.

An'anaviy sud-xatshunoslik ekspertizasida maktub shaklidagi yozishmalar qo'lyozma shaklda bo'lsa, yozuvning dinamikasi, harflarning katta-kichikligi, shakli (burchaksimon, ovalsimon, yotiq, to'g'ri kabi), yozuv vositasining turi, yozuv uslubi, bosim kuchi (yozuv vositasi kuchli bosimda, kuchsiz bosimda amalga oshirilishi) kabilar o'rganilar edi [Xolmatova G. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // – Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021].

Lingvistik ekspertizada esa qo'lyozma va elektron xat shaklidagi yozishmalarning shaklidan ko'ra mazmuniy tomoniga ko'proq e'tibor qaratiladi. Ya'ni matn tarkibiy qismlarini, avvalo, komponentlarga ajratib leksik, grammatik, sintaktik, punktuatsion tomonlari butun-qism munosabati asosida tahlil qilinadi [Ким Л.Г. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых текстов. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы : сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – 507-509 с].

Ijtimoiy tarmoq yozishmalari ham xuddi shu holatda o'rganiladi. Tarmoq yozishmalarining mazmun-mohiyati, nutq uslubi, tahqirli jumalarning bor-yo'qligi, ruhiy sog'lomlik darajasi aniqlab olinadi. Masalan, noadabiy leksik, grammatik va fonetik unsurlar bunda muhim belgi vazifasini bajaradi. Yozma nutq og'zaki nutq va tafakkurning mahsuli bo'lib, uni qayta-qayta tahrir qilish mumkin bo'lganligi sababli ham yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan aniqdir. Sababi audio shaklidagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik jihatlari to'raligicha aks etmaydi va bu esa tahrir jarayonini biroz murakkablashtiradi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini psixolingvistik tahlil qilishda tilshunoslik va psixologiya sohalaridan tashqari biologiya, fizika, dinshunoslik sohalarining ham o'rni beqiyosdir. Hech bir tarmoq alohida rivojlanmaganidek, lingvistik ekspertizada turli fanlarning integratsiyalashuv jarayoni aniq xulosaga kelishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi anonim audio yoki video ko'rinishidagi yozishmalar lingvistik ekspertizadan o'tkazilganda shaxsning nutqiy faoliyati masalaga oydinlik kiritadi. Ovozning tiniqligi, nutqni tashkil etuvchi fonemalar, tezlik va talaffuz nisbiy aniqligi, uzunligi va strukturasi, belgi va so'z hajmi, muayyan so'zdan foydalanish, ijtimoiy vaziyatga ko'ra so'zlardan foydalanish, xususan, jarayon suhbatdoshlarining nutqiy imkoniyati, ruhiy holati, emotsiyasi, ohangi shaxsni tavsiflovchi ko'plab kompleks ko'rsatkichlardir. Yuqoridagi fikrga qo'shimcha tarzda E.Sepir yana shunday izoh beradi: insonning barcha xatti-

harakatlari nutqida namoyon bo'ladı [Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М. : Прогресс, 1993, – 656 с].

Ya'ni an'anaviy fonoskopik ekspertizada ovozning tembri, to'liqini, baland-pastligi kabi akustik va artikulyatsiyaviy xususiyatlari o'rganilib, bunda tovushlarning yumshoq-qattiqliqi, qisqa-cho'ziqligi, tor-kengligi, lablangan-lablanmagan holatda talaffuz qilinishiga ko'ra muallifining qay hududga mansubligi va yoshini aniqlashga ko'maklashadi. Har bir shaxs Ijtimoiy tarmoqdan foydalanayotganda xoh yozma xoh ovozli xabar shaklidagi xabarlarida o'z nutqini o'zgartirishga harakat qilsada, o'zining individual nutq xususiyatlarining bir qismi saqlanib qoladi.

Lingvistik ekspertizaning an'anaviy sud ekspertizasidan farqi shundaki, matnning barcha lingvistik jihatlari to'liqligicha tahlil qilinadi va bu jarayon kichik bo'lsada o'zgartirishga harakat qilingan element yordamida jumboqli vaziyatga yechim topishda yordam beradi [ To'rayeva D. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi. PHD.diss. Toshkent, 2021]

Ijtimoiy tarmoq yozishmalari orqali shaxslarning maqsadi belgilab olinadi. Ijtimoiy tarmoq lardagi xabar shaklidagi ma'lumotlardan foydalanish jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmaydi. Ammo ma'lumot jamoa uchun sirli va shaxsiy hayotga taalluqli bo'lsa, (masalan, bola asrab olinganlik haqidagi ma'lumot yoki yashirin tarzda romantik munosabatlar) ushbu shaxsiy ma'lumotlar ommaga oshkor qilinsa, ijrochiga nisbatan fuqarolik va jinoiy javobgarlik paydo bo'lishi mumkin [https://lex.uz/docs/-2307248]

Jinoyat kodeksining 143-moddasida yozishmalar, telefon orqali muzokaralar, telegraf yoki boshqa xabarlarining sirini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [ https://lex.uz/docs/111453]

Instagram ijtimoiy tarmog'ining rasmiy sahifasi va telegram ijtimoiy tarmog'ining norasmiy kanalidagi bir mazmundagi ammo yondashuv turlicha bo'lgan xabar tahlil uchun olindi.





Lingvistik ekspertizada instagram ijtimoiy tarmog`i QALAMPIR.UZ saytiga va telegram ijtimoiy tarmog`ining daydi o`q norasmiy kanaliga joylangan ushbu ma`lumotlar tahlil sifatida olindi. Ushbu ma`lumotlarda jurnalist, "Sukut saqlama" loyihasi asoschisi Irina Matvienkoga tahdidli mazmundagi xabar kelganligi va xabar sababli jurnalist O`zbekistonni tark etganligi, aytilgan. QALAMPIR.UZ saytida xabar qoldirilgan va xulosa obunachilarning inon-ixtiyoriga qoldirilgan. Telegram ijtimoiy tarmog`ining norasmiy kanalida esa ma`lumot qoldirilgan va kanalning anonim sifatida yurituvchi adminlari tomonidan bu holatga quyidagicha izoh berilgan: Daydi o`q Matvienkoning tahdidli xabar bo`yicha huquqni muhofaza qilish organlariga nima sababdan murojaat qilmaganligidan hayron. [Daydi o`q telegram norasmiy kanali]

Yuqoridagi xabarlarda telegram ijtimoiy tarmog`ining Daydi o`q norasmiy kanalida I.Matvienkoga yuborilgan tahdidli xabar ham keltirib o`tilgan. Endi bu ikki ijtimoiy tarmoqning har bir xabarga yondashuv uslubiga to`xatlib o`tsak. Rasmiy faoliyat yurituvchi QALAMPIR.Uz sayti xabarlarga aosan qonun doirasida yondashadi, turli xil g`araz maqsadlarga qaratilgan tanqidiy xulosalar va emotsiyalarga boy fikrlardan xoli. Agarda biror ma`lumot noto`g`ri talqin qilingan bo`lsa keying sahifalarida mas`ullar bilan mulohazalar olib borib, aniqlik kiritilgan holatda yondashishga harakat qilish holatlarini ko`rishimiz mumkin. Telegramning norasmiy kanali hisoblanuvchi daydi o`q kanali esa avvalombor anonym sifatida faoliyat yuritadi va bu orqali ular har bir xabarga o`z ruhiyati, kayfiyati, dunyoqarashi va hissiyotlaridan kelib chiqib yondashadi. Bu kanalda yoritib boriladigan xabarlarga fikr bildirishning imkoni yo`q va insonlarning nafsoniyatiga tegadigan fikrlar uchun chora ko`rmoqchi bo`linsa yurituvchi shaxs anonym. Psixolingvistik yondashadigan bo`lsak mazkur kanal yurituvchisi Grammatik, uslubiy va punktuatsion xatoliklarga deyarli yo`l qo`ymaydi salbiy bo`yoq kasb etadigan senonim so`zlardan unumli foydalanishi bu shaxsning savodli tabaqa vakili ekanligini ko`rsatadi. Psixologik jihatdan yondashganimizda esa anonim shaxsning qonun va o`zgarishlarga shuningdek

dinimizga ijobiy munosabatda emasligiga va katta ehtimol bilan bu shaxsning O`zbekiston hududida emas boshqa davlat hududida turib blok yuritayotgan bo`lishi mumkin degan xulosaga keldik.

Endi esa ikkala tarmoqda yoritilgan xabar mazmuniga to`xtalsak. Lingvistik ekspertizada bu xabar siyosiy tUSDagi xabarlar sirasiga kiritilib, bu xabarda keltirilishicha Matvienko tahdidli xabardan keyin huquq tartibot xodimlariga emas, psixologlarga murojaat qilgan. Psixolog esa xabar psixopatik xarakterga ega ekanligini, bu bahorda ruhiy xastalanganlarning miqdori oshishi haqida aytadi. Jurnalist o`ylab o`tirmay O`zbekistonni bir necha haftaga tark etayotganini aytgan. QALAMPIR.UZ saytida keltirilgan ma`lumotga ko`ra jurnalist ayni paytda Gruziyada.

Quyida esa instagram ijtimoiy tarmog`ining QALAMPIR.UZ saytida qoldirilgan xabarga insonlarning o`z ruhiyatidan kelib chiqib qoldirgan izohlaridan tahlil uchun namuna qoldirib o`tildi.





Lingvistik ekspertiza yuqoridagi tasniflar orqali, rasmiy va norasmiy faoliyati, xabarlarning semantik xususiyati va shaxslarning ruhiy holatidan kelib chiqib xabarga yondashuv jarayonini aniqlash usullari asosida amalga oshirildi. Yozishmalarning ifoda shakli ijtimoiy tarmoqlarda joylangan xabar va u xabarga psixologiyasidan kelib chiqib yondashgan kuzatuvchilar o'rtasida bajarilgan. Ijrochilar sifatida 29 kishining fikrini oldik va har bir shaxsga o'zbek alifbosidagi 29 harfni shartli nom sifatida qo'lladik.

Yuqoridagi matnlarni tahlil qilishda kontentni tahlil qilish usuli, tavsiflovchi usul, semasiologik usullar sifatida, lingvopragmatik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Qo'shimcha tarzda leksikografik manbalardan ham foydalanildi. Xabarlardagi e'tiborni jalb qiladigan birliklar ajratib olindi: Gruziya, Agneshka, kalamushlar, piar, aksiya, tahdid, psixolog, xotinchalish, fitna, zaharlovchi, yalmog'iz, do'ppi. Bu 29 kishi bu xabarga quyidagicha fikr bildirgan: davlat organlarining ishi, pedofillarni yoritdi, bizga do'stlik qilmaydi, ayollarning ko'zini ochdi, piar qilinmoqda, sayohatga ketgan, davlatga qarshi chiqdi, erkinlikdan noto'g'ri foydalandi, huquq tartibot xodimlari himoyaga olmadi.

Bir nechta ishtirokchilarning fikrini tahlil qilamiz. A lingvistik jihatdan yondashsak: o'qituvchi emas imloviy xatoliklari bor, qipchoq lahjasi vakili; psixologik yondashsak: xabardan afsusda, turli zo'ravonliklarga qarshi xususan pedofillarga. B lingvistik yondashuv imlo xatoliklari mavjud katta ehtimol bilan erkak jinsiga mansub; psixologik yondashuv: jurnalist faoliyatidan norozi irq tanlaydigan psixologik qo'rquvlari bor shaxs. D lingvistik yondashuv: qipchoq lahjasi vakili, imlo xatolilari mavjud, yoshiga qarasa katta yosh vakli; psixologik yondashuv: Vaziyatdan xavotirda yumshoq tabiatli va ishonuvchan. E lingvistik yondashuv: ma'lumotga ega shaxs morfemik uslubiy xatolika yo'l qo'yilgan; psixologik yondashuv: muhitdan, hayotidan norozi ayni paytda qalb xotirjamligi tushgan. F lingvistik tahlil: H tovushi o'rnida x harfidan foydalangan; psixologik tahlil: holatda kinoyaviy yondashilgan. M lingvistik tahlil: savodli, huquqqiy bilimlarga ega shaxs, psixologik yondashuv: realist o'zidan

boshqaga ishonmaydigan shaxs, haqiqat ta'rafkori, o'z fikrini o'tkazuvchan. V lingvistik savodxonligi yetali emas, psixologik yondashuv: tinchlik tarafdori, manga tegma, sanga tegmayman qabilida ish tutuvchi shaxs, tartib va me'yorni sevuvchi inson. Fikr bildiruvchilarning katta qismi jurnalist himoyalaniishi tarafdori, bolalalikda olgan ruhiy tromalari hayoti davomida qiyinchiliklarga sabab bo'luvchi insonlar sirasiga kirib, har bir holatga, vaziyatga negativ baho beradi. Bu turdagi lingvistik ekspertiza ko'p qirrali germeneytik tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni yuqoridagi elektron maktub shaklidagi yozishma ishtirokchilarning ko'pligi, suhbatning murakkabligi, tipik xarakterga ega so'zlar qamrovining kengligi suhbat mavzusi va yo'nalishini aniqlab olishga qiyinchilik tug'diradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. D. Xudoyberganova Matnning antroposentrik tadqiqi, Fan nashriyoti. Toshkent, 2013.
2. Болатова А. Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. М., Аспект Пресс, Аспект Пресс, 2002. - 383с
3. E.G'oziyev Umumiy psixologiya., Toshkent 2021. 242-bet.
4. Qarang: Mengliyev B. Amaliy filologiya istiqbollari va uning "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun ijrosiga uyg'unligi imkoniyatlar eshigining "kalit"i. Ma'rifat gazetasi. 2015yil 10-oktabr.
5. Xolmatova G. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // – Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021.
6. Лингвистическая экспертиза : учебное пособие / И.А. Ярошук, Н.А. Жукова, Н.И. Долженко. – Белгород : ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 16 с.
7. <https://lex.uz/docs/-2307248>
8. <https://lex.uz/docs/111453>
9. Daydi o'q telegram rasmiy kanali
10. To'rayeva D. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi. PHD.diss. Toshkent, 2021